

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2023  
MAXSUS SON

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.A.Ganiyeva</b>	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi .....	6
<b>G.S.Mirzayeva</b>	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida .....	10
<b>S.N.Fazildinova</b>	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works .....	14
<b>Sh.T.Axmadjonova</b>	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini .....	17
<b>D.S.Usmonova</b>	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language .....	20
<b>D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova</b>	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges .....	24
<b>N.R.Maxmudova</b>	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida .....	28
<b>M.Saminjonov</b>	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar .....	31
<b>I.M.Jo'rayev</b>	
Qadimiy qadriyatlar .....	37
<b>D.R.Ubaydullayeva</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlarini qiyosiy tadqiqi .....	41
<b>N.Q.Adamboeva</b>	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari .....	49
<b>Z.M.Dadahonova</b>	
Components of knowledge control .....	53
<b>L.Teshebayeva</b>	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar .....	56
<b>Ш.М.Артикова</b>	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма .....	60
<b>M.M.Nurmatova</b>	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida .....	66
<b>S.I.Quziyev</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari .....	70
<b>T.Z.Ismonova</b>	
Problems and solutions of grammar translation method .....	76
<b>N.A.Komilova</b>	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari .....	80
<b>D.X.Madazizova</b>	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence .....	83
<b>S.A.Yusupova</b>	
Morphemic units expressing honour in different system languages .....	86
<b>N.Sidikova</b>	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri .....	91
<b>Sh.X.Nuritdinova</b>	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi .....	94
<b>N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva</b>	
Semantic analysis of english phrasal verbs .....	98
<b>B.A.Mukhtorova</b>	
The "Concept" in linguistics .....	102
<b>R.A.Ortiqov</b>	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili .....	106
<b>Sh.O.Abdiloyev</b>	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi .....	110

STEVAN SVEYGNING "NOMA'LUM AYOL MAKTUBI" HIKOYASIDA AYOL RUHIYATI  
TASVIRI

THE DESCRIPTION OF THE FEMALE PSYCHE IN THE STORY "LETTER OF AN  
UNKNOWN WOMAN" BY STEVAN SVEIG

ОПИСАНИЕ ЖЕНСКОЙ ПСИХИКИ В РАССКАЗЕ СТЕВАНА ШВЕЙГА «ПИСЬМО  
НЕИЗВЕСТНОЙ ЖЕНЩИНЫ»

Nargisa Sidikova<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, tabiiy yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasini o'qituvchi

**Annotatsiya**

Maqolada nemis ijodkori Stevan Sveyg hikoyasida yoritilgan ayol qismati haqida fikr yuritiladi. Inson taqdiri naqadar shafqatsiz ekanligi, ba'zida quvnoq, ba'zida xatarli, inson o'z manfaatlaridan voz kechib, o'zini qurbon qilishga qodir ekanligi, inson yuragi himoyasiz, mehrga tashnaligini, har qanday jasorat, qahramonlik, gohida jinoyat ham insonda kuchli his-tuyg'ular toshqinini keltirib chiqarish mumkinligi, ayniqsa ayol kishining ichki kechinmalari, ruhiyati va uning jasorati, sabr-bardoshi, farzandi uchun jondan voz kecha olishi tasvirlangan.

Badiiy adabiyotda inson qalb iztirobi, tuyg'ulari so'zlar asosida bayon etiladi. Shu so'zni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llay olish ijodkor uslubiga bog'liq. Stevan Sveyg "Notanish ayol maktubi" hikoyasida ijodkor meni, shu menni aks ettiruvchi ayollar obrazini, ayniqsa, yozuvchini sevib qolib, u uchun har narsaga tayyor bo'lgan ayol psixologiyasini epistolyar janr asosida mahorat bilan tasvirlaydi.

Maqolada notanish ayol farzandi o'limidan so'ng, metindek iroda va nomusdan voz kechib, farzandining otasiga o'zi tanib ulgurmay bu dunyoni tark etgan o'g'lon anyan uning bolasi ekanligini maktub orqali aytishga muyassar bo'lishi yoritilgan.

Ayol va erkak o'rtasidagi sevgi, fidoyilik, sadoqat haqidagi ilohiy tuyg'ulari va notanish ayolning bir umrlik javobsiz sevgisi, uning metindek sabr-qanoati, ayol kishining kuchli irodasi, uning sevimli yori va farzandiga bo'lgan cheksiz muxabbatini yaqqol his qila oladi.

**Abstract**

The article reflects on the fate of a woman, which is illuminated in the story of the German artist Stevan Zweig. How cruel is human fate, sometimes joyful, sometimes dangerous, that a person is capable of giving up his interests and sacrificing himself, that the human heart is vulnerable, thirsts for love, that any courage, heroism, sometimes even a crime can cause a flow of strong emotions in a person, especially internal experiences women, her psyche and her courage, patience, giving her life for the sake of a child.

In fiction, human suffering and feelings are expressed through words. Knowing how to use this word skillfully depends on the artist's style. In the story "Letter from a Stranger Woman," Stevan Zweig skillfully describes the psychology of a woman who falls in love with a writer and is ready to do anything for the sake of the creative self, the image of a woman reflecting this self, based on the epistolary genre.

The article explains that after the death of her child, a strange woman, having renounced her will and honor, informs the father of her child through a letter that the boy who left this world before she knew him is her child.

He clearly feels the divine feelings of love, devotion, fidelity between a woman and a man, and the unrequited love of a stranger for life, her patience, the strong will of a woman, her endless love for her beloved wife and child.

**Аннотация**

В статье размышляет о судьбе женщины, которая освещена в рассказе немецкого художника Стевана Цвейга. Как жестока судьба человеческая, иногда радостная, иногда опасная, что человек способен поступиться своими интересами и пожертвовать собой, что сердце человеческое ранимо, жаждет любви, что любое мужество, героизм, иногда даже преступление может вызвать изображен поток сильных эмоций в человеке, особенно внутренние переживания женщины, ее психика и ее смелость, терпение, отдача жизни ради ребенка.

В художественной литературе человеческие страдания и чувства выражаются посредством слов. Уметь умело использовать это слово зависит от стиля художника. В рассказе «Письмо незнакомой женщины» Стеван Цвейг умело описывает психологию женщины, влюбившейся в писателя и готовой на все ради творческого я, образ женщины, отражающей это я, основанный на эпистолярный жанр.

В статье объясняется, что после смерти своего ребенка чужая женщина, отказавшись от своей воли и чести, через письмо сообщает отцу своего ребенка, что мальчик, покинувший этот мир до того, как она его узнала, — ее ребенок.

Он ясно чувствует и божественные чувства любви, преданности, верности между женщиной и мужчиной, и безответную любовь незнакомки на всю жизнь, ее терпение, сильную волю женщины, ее бесконечную любовь к любимой жене и ребенок.

**Kalit so'zlar:** ayol psixologiyasi, epistolyar janr, hikoya janri, inson ruhiyati, ona faryodi, ayol ruhiyati, qalb sadoqati, ayol jasorati, ijodkor laboratoriyasi, yozuvchi psixologiyasi

**Key words:** *female psychology, epistolary genre, narrative genre, human psyche, mother's cry, female psyche, soul devotion, female courage, creative laboratory, writer's psychology.*

**Ключевые слова:** *женская психология, эпистолярный жанр, повествовательный жанр, психика человека, крик матери, женская психика, преданность души, женское мужество, творческая лаборатория, психология писателя.*

## KIRISH

Avstriyalik mashhur yozuvchi Stefan Sveygning xat ko'rinishidagi "Noma'lum ayol maktubi" nomli qisqa romani ilk bor 1922-yilda nashr qilingan. Bu maktubda asosiy qahramonlarning hayot yo'llarining barcha hodisalari tasvirlanadi. Bu ayol va erkak o'rtasidagi sevgi, fidoyilik, sadoqat haqidagi haqiqiy tuyg'ular tasvirlangan hikoyadir.

O'z asarlarida Sveyg inson yuragi himoyasiz, mehrga tashnaligini, har qanday jasorat, qahramonlik, gohida jinoyat ham insonda kuchli his- tuyg'ular toshqinini keltirib chiqarishini ta'kidlashdan charchamasdi. Uning birgina "Notanish ayol maktubi" novellasini o'qigan Maksim Gorkiy Sveygni ayol kishining ichki kechinmalari, ruhiyati bilag'oni, deya e'tirof etib, ushbu asarni ayolga bag'ishlangan eng yaxshi asar ekanligini alohida ta'kidlaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada buyuk nemis adibi Stefan Sveygning "Notanish ayol maktubi" va "Ayol hayotidan 24 soat" nomli asarlaridan maqolaning mazmunini yoritib beruvchi jumalardan namunalar keltirilgan. Badiiy asar tahliliga oid "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Ijod sehri", "Badiyylik – bezavol yangilik" kabi darslik va ilmiy monografiyalar asos qilib olindi. Asar tahlili, obrazlar ruhiyatini ilmiy va nazariy jihatdan tahlil etishda bu kitoblar asos vazifasini bajardi.

Maqolada Stefan Sveygning ijodida ayol ruhiyatini ochib beruvchi obrazlar talqinini yorituvchi qiyoslash, psixologik, psixoanalitik, biografik, strukturalizm kabi metodlardan foydalanildi.

## NATIJALAR

Buyuk adib, ko'plab g'aroyib asarlar muallifi Stefan Sveyg 1881 yilning 28 noyabrida Vena shahridagi badavlat xonadonda, to'qimachi korxonaga egasi Morits Sveyg oilasida dunyoga keldi. Yozuvchining bolaligi va o'smirligi haqida ko'p narsa ma'lum emas. Sveygning o'zi bolaligini, barcha zodagon oilalarda bo'lganidek, zerikarli va oddiy o'tganini ta'kidlagan. 1900 yili gimnaziyani tamomlab, Vena universitetining falsafa fakultetida tahsilni davom ettiradi. Adabiyot bobida Sveygning ilk mashqlaridanoq omadi kulib boqadi. Ota- onasiga ortiqcha yuk bo'lishni istamagan bo'lajak adib talabalik chog'idayoq cho'ntagidagi bor chaqalarini qoqishtirib, o'z hisobidan "Kumush torlar" deb nomlangan ilk she'riy kitobchasini nashr ettiradi va uni pochta orqali taniqli shoir Rayner Mariya Rilkega yuboradi. Mana shu ilk kitobchadan boshlab Stefan Sveyg bilan Mariya Rilke o'rtasida juda uzoq davom etgan do'stlik rishtalari bog'landi. Adibning "Notanish ayol maktubi" nomli asarida ayol ruhiyati va uning sabr-bardoshi, sadoqati haqida so'z boradi. Hikoya yozuvchining tog' sayyohatidan yurti Vena shahriga qaytgach boshlanadi. Yozuvchi pochtaga kelgan barcha maktublarni ko'zdan kechirib chiqayotgan paytda, uni bir manzilsiz, salmoqli bir maktub e'tiborini tortadi. O'n uch yoshli qiz o'zi bilan bir turar joy binosiga yangi ko'chib kelgan R ismli yozuvchini telbalarcha pinhona sevadi va bu sevgi xatto o'zlarini istiqomat qilgan joy Venadan Insburgga ko'chib ketganlarida ham davom etadi. Maktabda o'rta o'qib yurgan qiz, sevgilisi sababli eng a'lochi o'quvchiga aylanadi. Chunki uning sevilisi kitobxon ekanligi uchun qiz ham yuzlab kitoblarni yarim tungacha o'qib chiqardi.

Yolg'izlikdan qiynalgan notanish qizning onasi Insburgdagi bir savdogarga turmushga chiqadi. Insburgga ko'chib ketishga majbur bo'lgan qizaloq so'ngi bor R ismli sevgilisini ko'rish uchun tun bo'yi eshik oldida mijja qoqmay tirqishdan mo'ralab chiqadi. Sovuqdan juda qiynalsada, uxlab qolmaslik uchun issiq kiyimlardan voz kechib, so'ngi bor u bilan pinhona xayrlashish uchun metindek iroda bilan kutadi. O'n uch yoshli qizaloqdagi bunday sabrni yoritish bilan yozuvchi balki ayol zotidagi kuchli iroda va sabrni yoritgan, buni quyidagi jumalarda ko'rish mumkin: Tun bo'yi, yanvarning sovuq kechasida mijja qoqmay seni kutib chiqdim. Holdan ketib, a'zoyi badanimda og'riq turdi, o'tiray desam, o'rindiq ham yo'q, holdan ketganimdan keyin, eshik tagidan sovuq urib turganiga qaramay, muzdek yerga ko'yilakchan uzala tushdim. Sovuq jonimdan o'tib, buklangan oyoqlarimning tomiri tortishib, azob yedim, qo'llarim dir-dir titrab chiqdi, bir oz isinib olish uchun dam-badam o'rnimdan turardim, qorong'i yo'lagingiz sovuq zindonday joy edi. Shunga qaramay, seni o'z taqdirimni kutganday kutib turaverdim.

## MUNOZARA

Asarda bitta markaziy personaj mavjud fabula ham aynan uning taqdirini aks ettiradi. Shaxs psixologiyasining eng ichkari, eng nozik chizgilari muhabbatning hech kim aniq bilmaydigan, ayni vaqtda hammaga juda tanish ranglari bilan chizilgan.

Har qanday badiiy obraz singari inson obrazi – personaj ham konkretlik xususiyatiga ega. Zero, uning asosiy bo'lgan real inson konkret davr, hudud va ijtimoiy muhitda harakat qiladi, muayyan kasb-

kori bilan mashg'ul bo'ladi. Tabiiyki, bu omillarning bari uning nutqida o'z aksini topadi. Shu bois ham personaj nutqiga xos xususiyatlarni qayta yaratish obrazning to'laqonli va haqiqatga muvofiq bo'lishining muhim shartlaridan hisoblanadi. Personaj nutqining o'ziga xosligi esa eng avval u qo'llayotgan so'zlarda namoyon bo'ladi. O'z navbatida, o'sha so'zlardan tarkib topayotgan nutq personaj tasviridagi muhim chizgiga aylanadi: madaniy-ma'rifiy saviyasi, dunyoqarashi, ma'anaviyati, axloqi, kasb-kori haqida ma'lumot beradi[1, 268-bet].

Stevan Sveyg asarlarida nutq tiplarining qo'llanishi o'ziga xos uslubda namoyon bo'lgan. Chunki ayol qalbidagi yillab yashirib kelgan tuyg'ularini maktub orqali namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning yuqoridagi fikri adibning bu hikoyasidagi nutq tiplariga mos kelmaydi. Chunki personajning nutqi uning kasbi korini belgilashi, bu hikoyadagi ayol uchun begona. U o'zini o'zligini unutib, qalban ijodkorni sevgani, muhabbati mevasini zo'r yashashai uchun har qanday nomaqbul yo'lni tanlaganini xatda yozadi. Ayol sevsa quldek sevishi, nafratlansa dushmandek nafratga ega bo'lishi shu asar orqali tasvirlangan. Ayol sevikli yor bo'lishdan ko'ra ona bo'lish baxti totli ekanligi, ayniqsa, muhabbatining mevasi bo'lgan bolajonisi orqalik onalik maqomiga ega bo'lgan bo'lsa, u har qanday ishga qodir. Farzandi jasadini quchoqlab, qalbidagi tug'yonlarini, iztiroblari qog'ozga tushirishi jasorat. Ayol ruhiyatidagi evrilishlar asarda haqqoniy tasvirlangan. "O'zimni sotdim. Fohisha yoki ko'cha qizi bo'lganim yo'q, lekin o'zimni sotdim. Buni sen uchun, bolam uchun qildim... Farzandimda sening timsolingni ko'rardim, shuning uchun uning hech narsadan zoriqmay, bekamu ko'st yashashini istadim... Tanam faqat senga tegishli edi, lekin sen meni sevmading. Endi badanim nima bo'lishi menga qiziq emasdi..." [2, 69-bet].

Epistolyar janrda yozilgan asarlarda adresat aniq bo'ladi. Noma'lum ayol sevganiga maktub yozayotganda, xuddi yonida turgan muhabbatiga gapirayotgandek goh kulib, goh yig'lab gapirib yozadi. "Men sen uchun hatto ismsiz edim. Meni bir necha soniyagagina ko'rgan xizmatkoring Jon ham meni tanidi hatto, ammo sen tanimading. Buning o'rniga menga – bolaligidan borlig'ini senga baxshida etgan, o'zing ham tanimaydigan farzanding onasi bo'lgan ayolga pul tiqishtirding..." [2, 70-bet].

Ayol qalbi ummon. Biroq hikoyadagi ayol o'z muhabbati iskanjasida yonib, kuyib, o'rtangan ona ruhiyati tasviri berilgan. G'arb adabiyoti uchun xos bo'lgan tasvir Sharq adabiyoti uchun mos kelmaydi. Ayniqsa, ayol ko'nglidagi his-tuyg'ular ifodasi tasviri ham g'arbonsa ifodalangan. "O'zimni sotdim. Fohisha yoki ko'cha qizi bo'lganim yo'q, lekin o'zimni sotdim. Buni sen uchun, bolam uchun qildim... Farzandimda sening timsolingni ko'rardim, shuning uchun uning hech narsadan zoriqmay, bekamu ko'st yashashini istadim... Tanam faqat senga tegishli edi, lekin sen meni sevmading. Endi badanim nima bo'lishi menga qiziq emasdi..." [2, 72-bet].

Hikoyada ayol ruhiyati ishonchli tarzda namoyon etilgan. Yozuvchi go'yo ayol qalbini so'zmaso'z o'qiyotgandek tasvirlaydi. Muallif o'z vazifasidan chekinib, asosiy funksiyani asar qahramoniga yuklaydi. Epistolyar janr asosida yozilgan hikoyada so'zlovchi muallif emas personaj bo'ladi. Ayol o'z holatini, o'z xohishini, qilgan ishlarini yashirmay, ochiq-oydin oshkor qiladi. Ayol ruhiyatidagi evrilish onalik maqomida, farzand dog'ida yonayotgan ona iztirobida, hijronning yog'uda qovurilayotgan, javobsiz muhabbat qurboni bo'lgan holatda aks etadi.

### **XULOSA**

G'arb adabiyoti uslubi, yo'nali, oqimlar, janrlardagi obrazlar taqdiri jihatidan ham Sharq adabiyotidan farq qiladi. Stevan Sveyg asarlarida ayol ruhiyati real hayot ta'siri asosida ifodalangan. Notanish ayol obrazi, ismsiz ayol qismati sentimentalizmida tasvirlangan. Ayol psixologiyasi, ayol qalbidagi yevrilishlar ishonarli tarzda aks etgan. Ayol qismatini ishonarli ifodalash uchun epistolyar janr, maktub asosiy rol o'ynagan.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr. 2018 yil., 268-bet
2. Stevan Sveyg. Kuygan ko'ngil faryodi. Toshkent. Sharq. 2006 yil.
3. Adabiyotshunoslikning asoslari va mezonlari,-T.:2004, V. N. Sarimsaqov
4. Soliyev A. Qahramon ruhiyati va dramatik vaziyat,-T.:2004, 4-son
5. "Brief einer Unbekannten." Stefan Zweig, (1922)
6. "Erazm Rotterdamusning shukuhi va fojiasi" Stefan Sveyg (1934)